

O'QUVCHILAR MOTIVINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Sh.Hamroyev -QVXTXQTMOI p.f.n,

D.Baxritdinova-QVXTXQTMOI o'qituvchisi

Hozirgi zamon talabi – mamlakatimizning ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi pedagog kadrlar va ular mehnatlarining samarasi bo'lgan – yosh avlodni bilimli, zukko, mehnatkash, Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashdir. Bu mashaqqatli va mas'uliyatli ishning zamirida esa tinimsiz, samarali, tizimli mehnat yotadi. Pedagogning vazifasi – yosh avlodga jahon talablari darajasida o'quvchilarga ta'lim – tarbiya berish, ularning fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, faolligini oshirish va bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishdan iborat.

O'quvchilar faolligini oshirishda ularning darsga bo'lgan qiziqishi muhim ahamiyaga ega. **Motivatsiya** – insonni o'qish yoki biror harakatni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi bo'lib, ta'lim va tarbiyaning yuqori natijaga erishishida katta ahamiyat kasb etadi. Insonlarni o'qishga undovchi omillar ko'p. Chunonchi, o'quvchilar faolligigiga ta'sir etuvchi omillaridan biri–bu rag'batlantirishdir. O'quvchilarning ta'lim jarayonida o'z kamchiliklari va yutuqlarini yaqqol anglashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'quvchi yutuqqa erishganida maqtash, o'rnak qilib ko'rsatish, sovg'a berish kabilar uni rag'batlantiradi, tanbeh , jarima ballarini berish, tushuntirish kabilar esa salbiy holatning oldini oladi. Lekin, pedagog bola psixologiyasidan xabardor bo'lgan holda, shunga ahamiyat berishi kerakki, ortiqcha maqtov ham, ortiqcha tanbeh ham o'quvchi ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining xatti-harakati, shaxsiy namunasi, voqeyiy hikoyatlardan so'zlab berishi ham o'quvchilarda motivni kuchayishiga ta'sir qiladi. O'quvchilarda ijobiy xulq-atvor hamda axloqiy fazilatlarini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nashr qilingan “Qiziqarli matematika”, “Tabiat olamiga besh sayohat”, “O'ylab top, o'ynab top”, “Ming bir boshqotirma”, “O'zbek xalq ertaklari” kabi didaktik materiallarni tavsiya qilish, o'qilgan kitoblar yuzasidan suhbatlar o'tkazish bolalar motivini rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

O'quvchining o'qishga munosabati, qiziqishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri - **oilaviy muhit**. Oilada bolaga bo'lgan munosabat, ilmga qiziqtirish, rag'batlantirish, kerak vaqtida tanbeh berish, uyga berilgan vazifalarning nazoratini yo'lga qo'yish o'quvchilarni kelajakda bilim olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida innavatsion texnologiyalardan, **interaktiv metodlaridan** unumli foydalanish o'quvchilar faolligini oshiruvchi omillaridan biri bo'lib, biror fan yoki kasb-hunarga qiziqmaydigan bola bo'lmaydi, faqat uni motivini o'stira olmaydigan o'qituvchi bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchi doimo yangi usullardan foydalangan holda, o'quvchilar faolligiga ta'sir etuvchi omillarni o'zi ijod qilib topishi lozim. Masalan, tabiatga bo'lgan o'quvchining motivi, inson organizmi bilan bog'liq qiziqishlar hech qachon eskirgan emas. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiat hodisalarini bilishga, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni anglashga juda qiziqadi. Bu qiziqishlarni rivojlantirishda qo'shimcha didaktik adabiyotlardan, xalq og'zaki ijodidan o'rinli foydalanish ijobiy natija beradi. Zero, “Yoshlikda o'rganilgan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir” deb bejiz aytishmagan.

Mustaqil o'qib ta'lim olgan bola yillar davomida ham o'qigan asarining ma'no-mazmunini yodda saqlashi bilan boshqalardan farqlanadi. Ayniqsa, bunda o'qituvchining roli nihoyatda katta, mustaqil topshiriq berishda qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitish va rag'batlantirish o'quvchini bilim olishga intilishini yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchining faolligi – darsning saviyasini oshiradi, darsning “jonli ” bo'lishini ta'minlaydi.